



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISH
TAMOYILLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10578812>

Ahmedova Matluba Abdisalom qizi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika institute

Tillar va mактабгача та'lim fakulteti

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maktabda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishslashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarining lug'atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi.

Maktabda lug'at ustida ishslash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni ko'zda tutadi:

1. O'quvchilar lug'atini boyitish, ya'ni yangi so'zlarni, shuningdek, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini bilib olish uchun o'quvchi o'z lug'atiga har kuni 8-10 ta yangi so'zni, shu jumladan, ona tili darslarida 4-6 so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirishi lozim.

2. O'quvchilar lug'atiga aniqlik kiritish. Bu ichiga quyidagilarni oladi: 1) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'liq o'zlashtirish, ya'ni shu so'zlarni matnga kiritish, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslash, antonim tanlash yo'llari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritish; 2) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirish; 3) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no qirralarini o'zlashtirish; 4) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirish.

3. Lug'atni faollashtirish, ya'ni o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, ammo o'z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazish. Buning uchun shu so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o'qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4. Adabiy tilda ishlatilmaydigan so'zlarni o'quvchilar faol lug'atidan nofaol lug'atiga o'tkazish. Bunday so'zlarga bolalarning nutq muhitiga ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida qo'llanadigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniغا adabiy tildagi so'zlardan foydalana



boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida ishlataladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi. O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar hisoblanadi. O'qish darslarida o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. SHayxzoda, G'. G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uyg'un, A.Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, SH. Sa'dulla, Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. O'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'zlashtiradilar. O'qish darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishslash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda ishlataladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Bolalar mustaqil o'qishga o'rganganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni o'zlashtirishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'ati tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida foydalana boshlaydilar, natijada lug'atlari faollashadi. O'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyiydi, tartibga tushadi. Bularidan tashqari, kinofilm va televizor eshittirishlarining matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirish manbalari hisoblanadi. Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati» mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi. Sinfning katta qismi to'g'ri so'zni topish qobiliyatini o'zlashtirgandan so'ng, orqada qolgan bolalarni alifboga, lug'atning birinchi sahifasiga yuborish va sinfda bunday texnikani o'tkazish kerak: lug'atda so'zni alifbo tartibida topgan birinchi talaba sahifa raqamini ovoz chiqarib chaqiradi. Ish tezroq ketadi, bolalar ohangda alifbo harflarini saralashadi va shu bilan uni yodlashadi. Bu darsda vaqt ni tejaydi. Bolalar tomonidan lug'at yozuvining tuzilishini o'zlashtirish jarayoni alohida e'tiborga loyiqidir. Unda asliyatdan keyin grammatik belgilar: gap bolagi va asosiy grammatik belgilar qoyiladi.



Belgidan keyin so'zning lug'aviy ma'nosi ochiladi. Keyinchalik, bolalar so'zning to'g'ridan-to'g'ri yoki asosiy ma'nosi lug'at yozuvida 1 raqami ostida ochilganligini bilishlari kerak. Agar so'z bir nechta ma'noga ega bo'lsa, ular quyidagi raqamlar ostida ochiladi. Ko'pchilik so'zlar ko'p qiymatli bo'lsa-da, bir qiymatli so'zlar ham mavjud. Lug'atni boyitishda turli lug'atlar juda foydali qo'llanmadir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun «Imlo lug'ati» mavjud. O'qituvchi ma'lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug'atlardan (o'zbek tilining sinonimlar, antonimlar, frazeologik lug'atlaridan, turli terminologik lug'atlardan) muvaffaqiyatli foydalanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri so'z ustida ishslash, ya'ni lug'at ishidir. Ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishi o'quvchining so'z boyligini oshirishda muhim ahamiyat-ga ega. M. R. Lvovning ma'lumot berishicha, IV sinfgacha boshlang'ich sinf o'quvchilari o'zlashtiradigan yangi so'zlarning yarmi o'quvchilar lug'atiga ana shu darslar orqali kiradi. "Lug'at ishi – o'qituvchi faoliyatidagi bir lavha emas, balki o'zbek tili kursining barcha bo'limi bilan bog'langan tizimli, yaxshi tashkillashtiril-gan, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tuzilgan ishdir" – deb yozgan edi taniqli metodikachi olim A. V. Tekuchev. Lug'at ishi bosqichlarini quyidagicha ifodalash mumkin: 1) so'z ma'nosini tushuntirish, 2) so'zni faollshtirish, 3) so'zni nutqda qo'llash. O'quvchilar lug'atini faollashtirish – ona tili va o'qish darslarida bajariladigan lug'at ishining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Shuning uchun o'qituvchining vazifasi – o'quvchi lug'atidagi nofaol so'zlarni faol lug'at zaxirasiga o'tkazish uchun o'quvchiga nofaol so'zlarning birikuvchanligi va qo'llanish sohasini o'zlashtishga yordam berishdan iborat. O'quvchi biror so'zni o'z qayta hikoya-lashi, hikoyasi, suhbat, xati, bayoni, inshosida atigi bir marta qo'llasa ham, bu so'z faollahgan hisoblanadi. So'zni o'zlashtirish uning ma'nosi, birikuvchaligi va qo'llanish doirasini bilishdan iborat. O'quvchiga yangi so'z ma'nosini tushuntirish, uning so'zni to'g'ri tushunishiga erishish zarur. Buning uchun esa o'qituvchi so'z ma'nosini tushuntirish usullarini bilishi va ulardan o'rinni foydalanishi lozim. M. R. Lvov so'z ma'nosini tushuntirishning quyidagi usullarini ajratadi: ko'rgazmali, kontekstual, sinonim keltirish, mantiqiy ta'rif berish, batafsil tavsiflash, antonim keltirish, so'zning yasalish tarkibini tahlil qilish. "Ona tili" va "O'qish kitobi" darsliklarida o'quvchilar uchun tushunarsiz va ularning nutqida nofaol bo'lgan bir qancha so'zlar uchraydi. O'quvchilar lug'atini faollashtirishda asosan ana shu so'zlar ustida ishslash zarur. O'quvchilar lug'atini faollashtirish quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. So'z ma'nosini bir yoki bir necha usul yordamida tushuntirish:

- a) kontekst yordamida;
- b) shu so'zning ma'nodoshi yordamida;



- d) shu so'zning antonimi yordamida;
e) tavsifiy yo'l bilan (lug'atdan foydalanib yoki o'qituvchning o'zi mustaqil ravishda).

2. So'zni o'qish va yozish (so'zning to'g'ri talaffuzi va imlosi ustida ishlash).

3. So'zning qo'llanish namunalari ustida ishlash (tayyor so'z birikmasi va gaplar ustida ishlash).

O'qituvchi o'quvchilarni o'rganilayotgan so'zlar qo'llangan tayyor so'z birikmalari va gaplar bilan tanishtiradi. Ularning ayrimini aytib turib yozdirish mumkin.

4. So'zning semantik aloqalari ustida ishlash.

O'quvchilarni so'zlarning paradigmatic aloqalarni ajratish va o'zlashtirishga o'rgatuvchi mashqlar ular lug'atining boyishiga yordam beradi. Bunday mashqlar kerakli so'zni tanlash, jumla mazmunini aniq yetkazish, so'zning ma'no qirralarini tushunish qobiliyatini shakllantiradi.

5. O'rganilayotgan so'zlar ishtirokida mustaqil ravishda so'z birikmasi va gap tuzdirish.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish kitobida uchraydigan o'quvcilar uchun tushunarsiz so'zlar mazmuniy xususiyatiga ko'ra turlichadir. Shuning uchun bu so'zlarning ma'nosini tushuntirishda ularning xususiyatiga mos ravishda eng samarali usulni tanlash lozim. Bu o'rinda bir necha darslikdagi so'zlar misolida so'z ma'nosini tushuntirishning samarali usulini tanlash haqidagi fikrlarimizni bayon qilamiz. Boshlang'ich sinf "Ona tili" va "O'qish kitobi" darsliklarida o'quvchilarga ma'nosi tushunarsiz bo'lgan so'zlar ancha uchraydi. Ularning ma'nosini yuqorida ko'rsatilgan va boshqa usullar bilan tushuntirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahridinova B.M.O'zbekistonda o'quv lug'atchiligi: lingvestik asoslari, tarixi va istiqbollari: F.f.d(DSc)diss.-Samarqand.2020.,
2. Дубынина Н.В. История французско-русской лексикографии XVIII в. Автореф. дисс. канд.филол.наук. Москва, 2001.
3. Марковкин В.В. Основы теории учебной лексикографии: Дисс... д-ра филол наук(в форме научного доклада) -М.: Институт русского языка им А.С.Пушкина, 1990, С-9.
4. Mirxanova G.R. O'zbek tilining sinonimlar o'quv izohli lug'atini tuzishning lingvistik asoslari . Buxoro- 2021
5. Иванова Е.П. Семантизация имени существительного во французских толковых и энциклопедических словарях XVII-XXI вв.: эволюция



определений наименований гидрометеоров. Автореферат докт. филол. наук.
Санкт-Петербург, 2008.